


Korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) (2019 yil 1 fevral holatiga)

2019 yilning yanvar oyida Qoraqalpog'iston Respublikasida 417 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 87 taga ko'pdir.










Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 1864 ta (13,3 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 15897 tani tashkil etgan.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
 Qishloq va o'rmon xo'jaligi	2005	1930	40
 Sanoat	1905	1857	72
 Qurilish	1819	1788	96
 Savdo	3390	3290	134
 Tashish va saqlash	780	756	9
 Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	948	917	23
 Axborot va aloqa	312	296	4
 Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	301	296	4
 Boshqa turlari	4868	4767	35



Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.

2019 yilning 1 fevral holatiga 16328 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 20,8 % savdo, 11,7 % sanoat, 11,1 % qurilish, 12,3 % qishloq va o'rmon xo'jaligi, 5,8 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,8 % tashish va saqlash, axborot va aloqa 1,9%, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda 1,8 % dan va 29,8 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Nukus shahri (5201 ta), To'rtko'l (1662 ta), Beruniy (1346 ta), Amudaryo (1195 ta) va Ellikqala (1024 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Mo'ynoq (302 ta), Taxtako'pir (306 ta) hamda Shumanay (391 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalarning yillar kesimida soni, birlikda.






✚ Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar.


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 15897 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 1864 ta (13,3 %) ga o'sgan.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 20,7 % savdo, 11,7 % sanoat, 11,2 % qurilish, 12,1 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 5,8 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,8 % tashish va saqlash, axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1,9 % dan va 29,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Nukus shahri (5087 ta), To'rtko'l (1552 ta), Beruniy (1313 ta), Amudaryo (1162 ta) va Ellikkala (1018 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Mo'ynoq (297 ta), Taxtakopir (300 ta) hamda Shumanay (383 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda

01.02.2017 y.

• 13055

01.02.2018 y.

• 14033

01.02.2019 y.

• 15897




✚ Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar.

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019 yil yanvar oyida 417 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018 yilning shu davriga nisbatan 26,3 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Nukus shahri (150 ta), Turtko'l (48 ta), Xo'jayli (26 ta) va Ko'ng'rot (21 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Taxtakopir (6 ta), Nukus tumanida (11 ta) hamda Taxiato'sh, Chimboy, Shumanay tumanlarida (13 tadan) korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (134 ta), sanoat (72 ta), qurilish (96 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (40 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (4 tadan), tashish va saqlash (9 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.02.2017 y.		01.02.2018 y.		01.02.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
Respublika bo'yicha jami	177	100,0	330	100,0	417	100,0
Sanoat	46	26,0	37	11,2	72	17,3
Savdo	40	22,6	37	11,2	134	32,1
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	29	16,4	48	14,5	40	9,6
Qurilish	27	15,3	40	12,1	96	23,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	13	7,3	11	3,3	23	5,5
Tashish va saqlash	8	4,5	8	2,4	9	2,2
Axborot va aloqa	5	2,8	1	0,3	4	1,0
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	0,6	9	2,7	4	1,0
Boshqa turlari	8	4,5	139	42,3	35	8,3

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda






TIJORAT KORXONALARI.

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019 yil 1 fevral holatiga 12361 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar - 2878 ta, oilaviy korxonalar - 681 ta, ma'suliyati cheklangan jamiyatlar - 8492 ta va boshqalar 310 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 yil 1 fevral holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 124 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 47 taga yoki 61,0 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston Respublikasi, Janubiy Koreya Respublikasi va Pokiston Islom Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar davlatlar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 77 tasi qo'shma korxonalar, 47 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Nukus shahar (22 ta yoki jamidagi ulushi 17,7 %), Mo'ynoq tumani (18 ta yoki 14,5 %) va Taxiatoş tumani (11 ta yoki 8,9 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar To'rtko'l va Shumanay tumanlarida (2 tadan yoki 2,4% dan), Xo'jaili tumani (3 ta yoki 2,4%) Ellikqala tumani (4 ta yoki 3,2 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'p sanoatda 59 ta (47,6 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 34 ta (27,4%) hamda savdoda 18 ta (14,5 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa qurilishda hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 3 tadan (2,4 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 2 ta (1,6 %), tashish va saqlashda 1 tani (0,8 %), tashkil qilgan.

Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda tashish va saqlash faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 yilning yanvar oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 3 tani tashkil qilgan.

Bunda, Qozog'iston Respublikasi - 1 ta, Janubiy Koreya Respublikasi – 1 ta va Turkmaniston Respublikasi – 1 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi ulushi, %



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (1 ta) hamda savdo bo'yicha xizmatlarda (2 ta) hissasiga to'g'ri keladi.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, o'sish dinamikasi**


	2018 yil yanvar oyida		2019 yil yanvar oyida	
	Jami	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	Umumiy soniga nisbatan %
Qishloq va o'rman xo'jaligi			1	33,3
Sanoat				
Savdo			2	66,7
Yashash va ovqatlanish buyicha xizmatlar				
Qurilish				
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar kursatish				
Tashish va saqlash				
Boshqa turlar				



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni.

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019 yil 1 fevral holatiga faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 12288 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018 yil 1 fevral holatiga qaraganda 14,6 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, yani 4232 tasi (34,4 %) Nukus shahri, 1303 tasi (10,6 %) To'rtko'l, 1035 tasi (8,4 %) Beruniy hamda 861 tasi (7,0 %) Amudaryo tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 12288 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3273 tasi (26,6 %) - savdo, 1879 tasi (15,3 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1828 tasi (14,9 %) - sanoat, 1779 tasi (14,5 %) - qurilish, 912 tasi (7,4 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 751 tasi (6,1 %) - tashish va saqlash, 258 tasi (2,1 %) - axborot va aloqa sohasi, 215 tasi (1,7 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 1393 tasi (11,4 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.


Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash hamda axborot va aloqa sohasi faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %
(*fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari*)



2019 yil yanvar oyida 395 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 84,6 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Nukus shahri (142 ta), To'rtko'l (44 ta), Xo'jayli (26 ta), Qo'ng'iro't (20 ta) va Beruniy tumanida (18 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Taxtako'pir (6 ta), hamda Ellikqala (10 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**





Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (134 ta), sanoatda (72 ta), qurilishda (95 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (39 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlashda (9 ta), axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (4 tadan) tashkil etilgan.

👤 Oilaviy korxonalar soni




Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2019 yilning 1 fevral holatiga 694 tani tashkil etib, ulardan 681 tasi yoki 98,1 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 31,2 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 29,1 % yoki 198 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 27,7 % yoki 189 tasi sanoat, 21,6 % yoki 147 tasi savdo, 8,0 % yoki 55 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2,2 % yoki 15 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,5 % yoki 10 tasi axborot va aloqa, 0,6 % yoki 4 tasi qurilish, 0,3 % yoki 2 tasi tashish va saqlash hamda 9,0 % yoki 61 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi yashash va ovqatlanish hamda sanoatta, eng kami esa qurilish, tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


Tugatilgan korxonalar va tashkilotlar

2019 yilning yanvar oyida jami 122 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tugatgan. Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 89 taga tugatish oshgan.

Albatta xo'jalik yurituvchi subyektlarning bugungi kun talablariga moslashishi va raqobatbardoshligini oshirish borasida yurtimizda talaygina ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanib, qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida mamlakatimizda tadbirkorlarning bugungi kun bozoriga moslashish darajasi ortib bormoqda.

Tugatilgan korxonalarni yillar kesimida ko'radigan bo'lsak 2017 yil yanvar oyida 59 ta, 2018 yil yanvar oyida 33 ta, 2019 yilning yanvar oyida 122 ta korxonalar va tashkilotlar o'z faoliyatini yakunlagan.

**Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning
yillar kesimida dinamikasi, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Tugatilgan 122 ta korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 29 tasi (23,8 %) savdo, 15 tasi (12,3 %) qishloq va o'rmon xo'jaligi, sanoat hamda qurilishda 14 tadan (11,5 %), 4 tasi (3,3 %) tashish va saqlashda, 8 tasi (6,6 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 2 tasi (1,6 %) axborot va aloqada, 1 tasi (0,8 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 35 tasi (28,6 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shundan ko'rinib turibdiki, tugatilgan korxonalarining asosiy qismi savdo va qishloq va o'rmon xo'jaligi faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri kelgan.

**Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.02.2018 yil		01.02.2019 yil		
	Soni (birlikda)	jamiga nisbatan, % da	Soni (birlikda)	jamiga nisbatan, % da	Farqi, (+,-)
Jami	33	100,0	122	100,0	89
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	4	12,1	15	12,3	11
sanoat	2	6,1	14	11,5	12
qurilish	2	6,1	14	11,5	12
savdo	15	45,5	29	23,8	14
tashish va saqlash	1	3,0	4	3,3	3
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6	18,2	8	6,6	2
axborot va aloqa	1	3,0	2	1,6	1
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	0	0,0	1	0,8	1
boshqa turlari	2	6,0	35	28,6	33

2019 yil yanvar oyida 97 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan. Tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi 28 tasi (28,9 %) savdo, sanoat va qurilishda 14 tadan (14,4 %), 13 tasi (13,4 %) qishloq va o'rmon xo'jaligi, 4 tasi (4,1 %) tashish va saqlashda, 8 tasi (8,2 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 2 tasi (2,1 %) axborot va aloqada, 1 tasi (1,0 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 13 tasi (13,5 %) boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.:71-230-82-23 (24)